

VADUD MAHMUD IJODI VA TANQIDCHILIK MEROSI

Fazliddinova Mayramxon

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida munosib o'rin egallagan Vadud Mahmudning ilmiy-nazariy qarashlari, tanqidchilik uslubi va adabiy jarayonni baholashdagi o'ziga xos yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda uning badiiy tafakkur taraqqiyotiga qo'shgan hissassi, yozuvchi va shoirlar ijodini tahlil etishdagi mezonlari, adabiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan fikrlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Vadud Mahmudning o'z davri adabiy tanqid maktabi shakllanishiga ta'siri va zamondosh munaqqidlar bilan munosabatidagi umumiylik hamda farqlar ham ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается критическая деятельность Вадуда Махмуда — одной из значимых фигур в истории узбекской литературной критики. Анализируются его теоретические взгляды, методы художественного анализа и критерии оценки творчества писателей и поэтов. Особое внимание уделяется роли Вадуда Махмуда в формировании литературно-критической мысли своего времени, а также его влиянию на развитие критической школы и литературной среды. Материал раскрывает как индивидуальные особенности его критического стиля, так и его место среди современников-критиков.

Annotation: This article explores the critical career of Vadud Mahmud, a prominent figure in the development of Uzbek literary criticism. It examines his theoretical perspectives, analytical methods, and the principles he employed when evaluating the works of writers and poets. The study highlights Mahmud's contribution to the evolution of literary thought, his role in shaping the critical school of his era, and the distinctive features of his critical style. Additionally, the article discusses Mahmud's interactions with contemporary critics and his overall impact on the literary environment of his time.

Kalit so'zlar: munaqqid, Cho'lpon, Fitrat, Ajziy, panturkist, idealist, tasavvuf, badiiy-estetik, adabiy-tanqidiy bahs,

Kirish

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida yuz bergan yangilanishlar, jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlik g'oyalari yangi adabiy tafakkurning shakllanishiga asos soldi. Ana shu davrning yetuk vakillaridan biri, adabiy tanqid maktabini ilmiylik, badiiylilik va nafis did asosida rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan munaqqid — Vadud Mahmud. U 20-yillar adabiy jarayonining faol ishtirokchisi, o'zbek tanqidchiligidan shakllanishida beqiyos o'rin egallagan adib sifatida tanildi. Uning ilmiy merosi, badiiy-estetik qarashlari, Cho'lpon, Fitrat, Ajziy singari ijodkorlar haqidagi tahlillari bugungi adabiyotshunoslikda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Vadud Mahmud XX asr boshidagi o'zbek adabiy jarayonining eng nozik didli, nazariy jihatdan yetuk munaqqidlaridan biridir. U 1920-yillar adabiy hayotida faol ishtirok etib, badiiy-estetik tafakkurning boyishiga, adabiy tanqidning mustaqil ilm sifatida shakllanishiga sezilarli hissa qo'shdi.

Sho'ro mafkurasi yillarida munaqqidning nomi "panturkist" va "idealist" tamg'alari ostida qoralandi, asarlari ilmiy muomaladan chiqarildi. Ammo bunday chetlatish uning fikrlarining chuqurligi va milliy adabiy merosga sadoqatini yo'qqa chiqara olmadi. Shunga qaramay, o'zbek adabiyotshunosligida u haqida ijobiy mulohazalar mutlaqo to'xtab qolmadi. "Barhayot an'analar" kabi ayrim nashrlarda uning badiiy-estetik qarashlari haqidagi fikrlar e'tirof etilgan.

Mustaqillikdan so'ng Vadud Mahmudning merosi qayta kashf etildi. Xususan, adabiyotshunos Bahodir Karim uning ilmiy qarashlarini yangi ilmiy mezonlar asosida tahlil qilib, bir qator maqolalar, nomzodlik dissertatsiyasi (1995) va "Jadid munaqqidi Vadud Mahmud" (2000) risolasini yaratdi. Professor Naim Karimov ham Cho'lpon va Vadud Mahmud munosabatlarini tadqiq etib, munaqqid shaxsiyatidagi ilmiy halollik, estetik did va jasoratni yoritdi.

Bugungi kunda Vadud Mahmudning maqolalari, ayniqsa, she'r poetikasi, tasavvuf estetikasi, badiiy shakl va mazmun mutanosibligi haqidagi qarashlari o'zbek adabiy tanqidining shakllanish bosqichini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Vadud Mahmud tanqidchi sifatida 1920-yillarda Samarqand ma'rifiy muhitida shakllandi. Behbudiy, Shakuriy, Siddiqiy-Ajziy, Hoji Muin, Fitrat, Ayni singari ziyolilar bilan ilmiy-adabiy aloqada bo'lgan. Fors, turk, rus tillarini yaxshi bilishi, Sharq mumtoz

adabiyoti va G'arb estetikasini mukammal o'rganishi uning tanqidchilik maktabiga keng dunyoqarash olib kirdi.

Vadud Mahmud tanqidchilikda uch asosiy tamoyilga amal qilgan:

1) Badiiylik mezoni— u har qanday asarda avvalo badiiy did, shakl go'zalligi, musiqiylik, ohang, tabiiylik va ravonlikni ustuvor qo'yadi.

2) Estetik yondashuv— maqolalarida poeziyaning ruhiy ta'siri, go'zallik orqali insonni yuksaltirish g'oyasini ilgari suradi. Bu borada Edgar Po ijodidan misollar keltirishi, Hind faylasufi Tagor fikrlariga murojaat qilishi, Gandi qarashlarini eslatishi — uning zamonaviy estetik tafakkur bilan tanishligini ko'rsatadi.

3) Milliy adabiyotga hurmat— Fitrat va Cho'lponni 20-yillar o'zbek adabiyotining peshqadamlari sifatida baholashi, ulardagi shakl-mazmun uyg'unligi, milliy ohang va tasavvufiy ruhni to'g'ri anglaganini ko'rsatadi. Aynan shu mustaqil fikrlari uchun uni "idealist" deb ayblashgan, hatto 1927-yilgi madaniyat xodimlari qurultoyidan chiqarib yuborishgan.

Vadud Mahmud she'riyatda shakliy noziklikni talab qiladi. Shuni u mazmun va shakl mutanosibligi bo'yicha shunday izohlaydi: "Shoirning mazmuni bilan olg'on shakli bir-biriga aloqa qilmasa, badiiylik yuzaga chiqolmaydi." Bu fikr uning adabiy didining pishganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Fitrat va Cho'lpon ijodiga talabchan yondashuvi uning chin munaqqid sifatidagi prinsipial tabiatini ochadi.

Ajziy ijodi xususida Vadud Mahmud talqinlari

Vadud Mahmudning "Turk shoiri Ajziy" maqolasi 20-yillar tanqidchiligida adabiy portretning yetuk namunasi sanaladi. Maqola mazmuni uch kichik bo'limga ajratilgan bo'lib, har bir bo'limda shoirning ichki dunyosi, ishq, ijtimoiy g'oyalari tahlil qilinadi.

U Avval Ajziyning hayoti, adabiy maktabi, g'azal poetikasi haqida fikr bildiradi. Ammo Vadud Mahmudni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy jihat — Ajziyning ishqini tasniflashidir. U shunday deydi: "Ajziyning ishq na tasavvuf ishq va na zohiriy ishqdur. Uning ma'shuqi — xalqdir, millatdir." Bu fikr tanqidchining millatparvarlik ruhiga, shoirni asar orqali xalq dardiga bog'lay olish mahoratiga dalildir. Vadud Mahmud Ajziy she'rlaridagi dard, muhabbat, xalqparvarlikni faqat his-tuyg'u bilan emas, balki ijtimoiy-

estetik kontekstda ham tahlil qiladi. Maqola hissiyot, obrazlilik, badiiy ta'riflar bilan to'yingan.

Adabiyotshunos Bahodir Karim ta'kidlaganidek: "Vadud Mahmud Ajziy ijodining adabiy negizini ilmiy-estetik jihatdan chuqur yoritdi." Bu maqola munaqqidning portret janrida yuksak mahoratga egaligini tasdiqlaydi.

Cho'lpon va Fitrat ijodiga zamondoshlar munosabati

1920-yillarda adabiy tanqid ikki oqimga bo'lingan edi: biri Cho'lpon va Fitratni mafkuraviy nuqtai nazardan tanqid qilgan oqim, ikkinchisi esa ular ijodini xolis baholagan guruh. Ikkinchi guruhning yetakchi munaqqidi — Vadud Mahmud edi. U Cho'lpon ijodining milliy ruhini, poetik ohangini chuqur anglagan holda uning "Buloqlar" va "Tong sirlari" to'plamlariga bag'ishlab taqrizlar yozgan.

"Buloqlar" haqidagi mashhur taqrizida u shunday deydi: "Bu to'n — o'zbek ruhidan bitgondir; unda xalqning bugungi holi, ohangi, sezgisi ko'piriladi." Bu nafaqat adabiy baho, balki milliy o'zlikni anglashning erta ifodasidir.

Yunus Hoji Maqsudiy xotiralarga asoslanib, Vadud Mahmud Cho'lponning "Tong sirlari" kitobiga so'zboshi yozganini, ammo siyosiy bosim sababli u chop etilmaganini qayd etadi. Bu esa ularning ijodiy va insoniy yaqinligini ko'rsatadi. Fitrat ijodiga munosabatida ham Vadud Mahmud estetik mezonni asosiy mezon sifatida qo'llaydi. Fitratning she'riy tajribalaridagi shakl-mazmun uyg'unligi, mumtoz she'riyatga bog'liqligi, umumturkiy adabiy merosdagi o'rni haqida xolis fikrlar bildiradi. Ularning ijodiga berilgan bunday haqqoniy baholar, afsuski, o'sha davrning mafkuraviy yondashuvi bilan mos kelmagani uchun munaqqidning o'zi siyosiy ta'qibga uchragan.

Xulosa

Vadud Mahmud o'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishida muhim o'rin tutgan, badiiy-estetik tafakkurni yangi bosqichga ko'targan, adabiyotga xolis nazar tashlagan, millatparvar munaqqiddir. Uning Cho'lpon, Fitrat, Ajziy singari siymolar haqidagi tahlillari ilmiy chuqurligi, badiiy did bilan uyg'unligi bilan ajralib turadi. Munaqqidning adabiyotga bo'lgan muhabbati, xalqparvarlik kayfiyati, Sharq va G'arb adabiy merosidan keng bahramandligi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Vadud Mahmud ijodini o'rganish — o'zbek adabiy tanqidining ildizlarini, milliy adabiy tafakkur

taraqqiyotini anglashning muhim bosqichidir. Uning asarlari bugun ham yosh tadqiqotchilar uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Nazarov, A. Rasulov, Q. Qahramonov, Sh. Axmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T.: 2012.
2. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. -T.: Ma'naviyat. 2007, 78-79-betlar.
3. Bahodir Karim. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. - T.: 2000. 59-bet.
4. Vadud Mahmud. Turk shoiri Ajziy // O'zAS. 1989. 10-noyabr.
5. Vadud Mahmud. Adabiy tanqidga bir nazar. – Toshkent
6. Fitrat. Tanqidiy maqolalar to‘plami. - Toshkent
7. Vadud Mahmud. Turk shoiri Ajziy. – T.: Samarqand gazetasi. 1924.